

QORAQALPOG‘ISTON QADIMIY ARXITEKTURAVIY YODGORLIKLARINI UMRBOQIYLIGINI TA‘MINLASH UCHUN TA‘MIRLOVCHI KADRLARNI TAYYORLASHNING AHAMIYATI

Tleumuratov Azat Aymuratovich

Berdaq nomidagi QDU mustaqil izlanuvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20180067>

Ma'lumki, Janubiy Orolbo'yida joylashgan Qoraqalpog'iston va Xorazm viloyati jahon sivilizatsiyasining eng qadimgi markazlaridan bittasi hisoblanadi. Xorazmning qadimgi, o'rta asrlardagi va XVII-XIX asrlardagi yodgorliklari M. Alixanov-Avarskiy, I.V. Anichkov, M.N. Bogdanov, A.L. Kun, A.D. Kalmikov, N.N. Muravev, M.K. Skobelov va boshqa xorijiy sayyohlar, harbiy topograflar, geograf olimlar, etnograflarining e'tiborini bir necha bor jalb etgan [3, 56 b.].

Tarixiy yodgorliklarni ta'mirlash va qayta tiklash ilmi qadimiy bo'lsada, oz miqdordagi biz kabi olimlar, ilmiy xodimlar o'rganayotgan, ya'ni yodgorliklarni texnik holatini o'rganish, ularning yer ostki va yer ustki qurilmalarini konstruktiv mustahkamlash sohasi yangidan rivojlanib kelayotgan fan yunalishi tariqasida ilm maydoniga kirib kelmoqda. Chunki, tajribalardan, manbalardan ma'lumki, tarixiy yodgorliklarning **tarixi, arxitekturasi, arxeologiyasi va san'atshunosligi** tomonlari juda yaxshi o'rganilgan b'olib, ularning **konstruktiv holatlari, ya'ni asosiy yuk kutaruvchi «skeleti»-kontruksiyalarining holati** juda kam o'rganilgandir [1, 48 b.].

Tarixiy yodgorliklarning har biri o'z oldiga yechilmagan katta mavzudir, shuning uchun ta'mirlovchi mutaxassis ularning konstruksiyalarini har tomonlama o'rganib, ilmiy asoslagan holda xulosa qilishi kerak bo'ladi. Mahalliy ustalar ta'mirlash ishlarini ilmiy asoslamasdan o'z bilganicha bajaradilar. Bunday yechimini kutayotgan vazifalar na fakat tarixiy obidalarini ilmiy o'rganayotgan biz kabi oz miqdordagi ilmiy xodimlarning balki keng jamoatchilikning galdagi vazifalaridan biridir.

Xorazm Ma'mun akademiyasida 2008 va 2018 yillar davomida KDU va UrDUning ilmiy xodimlari bilan hamkorlikda «Janubiy Orolbo'yi (Qoraqalpog'iston va Xorazm viloyatidagi) me'moriy obidalarining monitoringini olib borish va ular bo'yicha ma'lumotlar bazasini yaratish» mavzusi bo'yicha ilmiy tadqiqotlar bajarildi. Bu ishlar asosida ko'plab ma'lumotlar yig'ilgan bo'lib, biz "ma'lumotlar bazasi"ni to'ldirishda me'moriy obidalar bo'yicha olingan natijalarni statistik tahlil qildik va quyidagi muammolarlar anikladik [3, 79 b.]:

- bugungi kunda ekologiyaning salbiy ta'sirlari, ya'ni sho'rlanishning oshishi, yer osti suvlarining yuqori ko'tarilganligi, biologik (termitlar) va texnogen ta'sirlar, hamda insonlar faoliyatidan kelib chiqadigan (paxsadevor yodgorliklarining muhofaza zonalarida ekin maydonlari tashkil qilinishi, hatto shaxsiy fuqarolar qal'alarning tuproqlarini uy-joy qurilishlari uchun foydalanayotganligi, nazorat qilinmayotganligi, ba'zilar qarovsiz holda yotganligi) ta'sirlarning mavjudligi, shuningdek hozirgi davrgacha Qoraqalpog'iston va Xorazm viloyatidagi me'moriy obidalarining texnik holati bo'yicha to'liq ma'lumotlar yetarli bo'lmaganligi sababli, ularni muhofaza kilish, qayta tiklash va ta'mirlash ishlari bo'yicha bir qancha muammolar mavjud.

Bu salbiy okibatlar o'z vaqtida yechilmasa nodir san'at namunasi hisoblangan tarixiy obidalar o'z-o'zidan buzilib, yo'kolib ketish xavfi bor, ayniqsa mintaqamiz turizm hududi

bo'lganligi bois sayyohlar kelishini kamayib ketishi mumkin. Chunki sayyohlar noyob tarixiy obidalarni tomosha qilish uchun kelishadi, ularni o'sha davrda, ya'ni texnika rivojlanmagan paytda shunday hashamatli obidalarning tiklanganligi kiziktiradi.

Ma'lumki, ta'mirlash ishlarida muhandislik masalalari yetakchi o'rinda turadi, chunki obidalarning qurilmalarini yaxshi o'rganmasdan turib ta'mirlash ishlarini bajarishda ko'pincha chalkashliklar va xatoliklar uchrab turadi. Bunda ayniksa, adabiyotlarning o'zbek tilida juda kamligi achinarli o'ldir. Ta'mirchi muhandis-me'morlar uchun ham va bu sohada ishlayotgan ustalar uchun ham mo'ljallangan maxsus qo'llanma, darsliklar yo'q va mavjud bo'lgan hujjatiy texnik tavsiyanomalar yetishmaydi.

Qoraqalpog'iston respublikasi va Xorazm viloyati markaziy shaxarlardan uzoq bo'lganligi va mintaqada ekologiyaning salbiy ta'siri oshib borayotganligi bois tarixiy yodgorliklarni mukammal ta'mirlash ishlarini ko'ngildagidek bajarish va kelgusi avlodlarga yetkazish maqsadida O'zR Fanlar akademiyasi, O'zR Oliy va o'ta maxsus vazirligi hamda O'zbekiston Yoshlar Ittifoqining yordamida – Xorazm Ma'mun akademiyasi, KDU va UrDU qoshida «**Yosh ta'mirlovchi kadrlar markazi**»ni va **o'quv laboratoriyasini tashkil kilish** maksadga muvofikdir.

Ushbu markazga iktidorli yoshlarni jalb kilib, ta'mirlashning amaliy ishlarini bajarishni mukammal o'rgatish yo'lga qo'yilsa me'moriy yodgorliklarni saqlashga o'z hissamizni qo'shgan bo'lar edik. Bu amaliy ish o'z navbatida - **“fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasi”ning** bajarilishida o'zining samarasini albatta beradi.

Xulosa qilib shuni aytish joizki, yuqorida keltirilgan Janubiy Orolbo'yida joylashgan Qoraqalpog'iston va Xorazm viloyati uchun juda katta ahamiyatga ega bo'lgan muammolar ushbu markazning ijobiy ishlarini bajarish davomida amalga oshiriladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Askarov Sh.D. Arxitektura Uzbekistana i stran SNG. – Tashkent: Izdatelstvo jurnala «San'at», 2012. – S. 82.
2. Durdieva G. Monumentальные памятники древнего зодчества Хорезма i ekologiya.//«Ekologicheskoe obrazovanie i ustoychivoe razvitie», Materialy mejdu. nauchno-prakticheskoy konferensii. Nukus-2004. s.79-80.
3. Zohidov P. Sh. Me'mor olami. – Toshkent: “O'zbekiston”, 1996. – B. 59.